

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
QARORI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING 2015-YILGI ASOSIY MAKROIQTISODIY
KO‘RSATKICHLARI PROGNOZI VA DAVLAT BUDJETI PARAMETRLARI
TO‘G‘RISIDA**

[Ko‘chirma]

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining “O‘zbekiston Respublikasining 2015-yilgi Davlat budjeti, maqsadli davlat jamg‘armalarining budjetlari hamda soliq va budjet siyosatining asosiy yo‘nalishlari to‘g‘risida” 2014-yil 22-oktabrdagi 991-II-sonli va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining “O‘zbekiston Respublikasining 2015-yilgi Davlat budjeti, maqsadli davlat jamg‘armalarining budjetlari hamda soliq va budjet siyosatining asosiy yo‘nalishlari to‘g‘risida” 2014-yil 13-noyabrdagi SQ-453-II-sonli qarorlarini bajarish yuzasidan:

1. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 2015-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi 1-ilovaga* muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasining 2015-yilgi Davlat budjeti asosiy parametrlari 2-ilovaga* muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining, Respublika yo‘l jamg‘armasining, budjetdan tashqari Umumta’lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta’mirlash va jihozlash jamg‘armasining, Oliy o‘quv yurtlarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg‘armasining, Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg‘armasining 2015-yilgi asosiy parametrlari 3 — 7-ilovalarga* muvofiq tasdiqlansin.

* 1 — 7-ilovalar berilmaydi.

2. 2015-yilgi O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti taqchilligining cheklangan miqdori yalpi ichki mahsulot hajmiga nisbatan 1,0 foiz miqdorida belgilansin.

Belgilab qo‘yilsinki, O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti taqchilligini moliyalashtirish, qonun hujjatlariga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasining respublika budjeti mablag‘larining 2015-yil boshidagi bo‘sh qoldiqlari va boshqa qadrsizlanmaydigan manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

3. 2015-yil uchun:

qo‘shilgan qiymat solig‘i stavkalari 20 foiz miqdorida;

yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i stavkalari 8-ilovaga muvofiq;

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i stavkalari 9-ilovaga muvofiq;

yagona soliq to‘lovi stavkalari 10-1, 10-2 va 10-3-ilovalarga muvofiq;

tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo‘yicha yuridik shaxslardan va yakka tartibdagi tadbirkorlardan olinadigan qat’iy belgilangan soliq stavkalari 11-ilovaga muvofiq;

yakka tartibdagi tadbirkorlardan olinadigan qat’iy belgilangan soliq stavkalari 12-ilovaga muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi rezidentlariga dividendlar va foizlar tarzida to‘lanadigan daromad solig‘i stavkalari 10 foiz miqdorida;

O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan va uning hududiga chetdan keltiriladigan aksiz solig‘iga tortiladigan tovarlarga aksiz solig‘i stavkalari 13-1 va 13-2-ilovalarda keltirilgan ro‘yxatga muvofiq;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari 14-ilovaga muvofiq;

yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari 15-ilovaga muvofiq;

imzoladigan bonus va tijoratbop topilma bonusi stavkalari 16-1 va 16-2-ilovalarga muvofiq;

ayrim turdagi mahsulotlar bo‘yicha qo‘shimcha foyda solig‘i stavkalari 17-ilovaga muvofiq;

yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkalari 18 va 19-[ilovalarga](#) muvofiq;

yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i stavkalari 20-[ilovaga](#) muvofiq;

yagona yer solig'i stavkalari 21-[ilovaga](#) muvofiq;

mahalliy soliqlar va yig'imlar stavkalari 22-[ilovaga](#) muvofiq;

23-[ilovaga](#) muvofiq belgilangan soliqqa tortish obyektlaridan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar stavkalari 1,6 foiz, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar stavkalari 1,4 foiz hamda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Umum-ta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga majburiy ajratmalar stavkalari 0,5 foiz miqdorida;

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasiga yig'imlar va ajratmalar stavkalari 24-[ilovaga](#) muvofiq;

mablag'larni budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi va O'zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi Kengashi o'rtasida taqsimlagan holda yagona ijtimoiy to'lov stavkalari 25-[ilovadagi](#) normativlarga muvofiq;

fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy sug'urta badallari stavkasi 7,0 foiz miqdorida tasdiqlansin.

4. Belgilansinki, mol-mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlarga soliq solish shartnomada belgilangan ijara to'lovi summasidan kelib chiqqan holda, lekin:

yuridik shaxslar uchun — davlat ko'chmas mulkidan foydalanganlik uchun ijara to'lovining eng kam stavkalaridan;

mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun — 26-[ilovaga](#) muvofiq belgilangan ijara to'lovining eng kam stavkalaridan kelib chiqqan holda hisoblangan summadan kam bo'lmagan miqdorda amalga oshiriladi.

5. 2015-yilning 1-yanvaridan boshlab:

“O'ztransgaz” AK tomonidan avtomobillarni gaz bilan to'ldirish kompressor stansiyalariga (balansida avtomobillarni gaz bilan to'ldirish kompressor stansiyalari mavjud yuridik shaxslarni o'z ichiga olgan holda) sotadigan tabiiy gazning ulgurji-sotish narxiga soliqqa tortilmaydigan maxsus investitsiyaviy qo'shimcha haqi bir kubometriga 400 so'm miqdorida;

mobil aloqa xizmati ko'rsatuvchi yuridik shaxslar (uyali aloqa kompaniyalari) tomonidan abonent raqamidan foydalanganlik uchun to'lov haqi, mablag'larni 27-[ilovaga](#) muvofiq taqsimlagan holda, oyiga 750 so'm miqdorida belgilansin.

6. Belgilab qo'yilsinki, yagona soliq to'lovidan tushumlar O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti, budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi, Respublika yo'l jamg'armasi hamda budjetdan tashqari Umumiy ta'lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi o'rtasida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadigan miqdorlarda taqsimlanadi.

7. Qarzni undirishni soliq to'lovchilar mol-mulkiga qaratish uchun soliq bo'yicha qarzlarning eng kam miqdorlari 28-[ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin.

14. Mintaqalarning o'zini-o'zi moliyaviy ta'minlash darajasini oshirish, davlat boshqaruvi organlarining va mahalliy davlat hokimiyati organlarining mahalliy budjetlar daromadlari va xarajatlarini shakllantirishdagi roli, mustaqilligi va mas'uliyatini oshirish, mahalliy budjetlarning O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetidagi ulushini ko'paytirish maqsadida quyidagi umumdavlat soliqlari va boshqa daromadlar bo'yicha tushumlar:

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

11-[ilovada](#) nazarda tutilgan yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning tadbirkorlik faoliyati ayrim turlari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq;

12-[ilovada](#) nazarda tutilgan yakka tartibdagi tadbirkorlardan olinadigan qat'iy belgilangan soliq;

O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan pivo va o'simlik yog'iga aksiz solig'i;

chakana savdo tarmoqlarida sotiladigan oltindan yasalgan zargarlik buyumlariga aksiz solig'i;

29-ilovaga muvofiq davlat bojlari, yig'img'lar va jarimalar to'liq hajmda Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti hamda viloyatlar va Toshkent shahrining mahalliy budjetlari daromadlariga o'tkazilsin.

Belgilansinki, mobil aloqa xizmatini ko'rsatuvchi yuridik shaxslar (uyali aloqa kompaniyalari) tomonidan abonent raqamidan foydalanganlik uchun to'lovning O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetiga yo'naltiriladigan qismi, abonentning ro'yxatga olingan joyiga qarab Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti va viloyatlarning mahalliy budjetlariga o'tkaziladi.

15. 2015-yil uchun:

Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetining, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlarining daromadlar va xarajatlar hajmlari, O'zbekiston Respublikasining respublika budjetidan budjet subvensiyalarining cheklangan miqdorlari 30-ilovaga* muvofiq;

Qoraqalpog'iston Respublikasi budjetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlariga umumdavlat soliqlari tushumlaridan ajratmalar normativlari 31-ilovaga* muvofiq;

O'zbekiston Respublikasining respublika budjeti, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlarining naqd pul kassa aylanmasining yo'l qo'yiladigan eng kam miqdorlari 32-ilovaga* muvofiq tasdiqlansin.

16. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi bilan kelishilgan holda:

bir oy muddatda Vazirlar Mahkamasiga Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax, Namangan, Samarqand, Surxondaryo va Sirdaryo viloyatlarining subvensiya olish darajasini pasaytirish dasturlarini kirtsin;

2015-yilning 1-choragi yakunlari bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlarining daromad keltiradigan bazasini ko'paytirish, tushumlarning qo'shimcha rezervlarini topish va tegishli hududlarda soliqqa tortiladigan bazani kengaytirish bo'yicha Vazirlar Mahkamasiga takliflar kirtsin;

subvensiya olish darajasini qisqartirish dasturlarini amalga oshirishning borishi va tegishli budjetlarning daromad keltiradigan bazasini ko'paytirish chora-tadbirlarining natijalari to'g'risidagi ma'lumotlarni har chorakda Vazirlar Mahkamasiga taqdim etib tursin.

Belgilansinki, Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlarining daromadiga qo'shiladigan soliq va boshqa majburiy to'lovlar tegishli budjet parametrlarida ko'zda tutilmagan xarajatlarga yo'naltirilishi mumkin emas.

17. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga (daromadlar va xarajatlar o'rtasidagi vaqtinchalik kassa tafovutlarini qoplash uchun) tegishli mahalliy budjetlarga budjetdan subvensiyalar va ssudalar ajratishda ularning miqdorlarini hududlar bo'yicha barcha soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'liq tushishidan, shuningdek ish haqi (yagona ijtimoiy to'lov bilan birga), nafaqalar va ularga tenglashtirilgan to'lovlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetining xarajatlarini birinchi navbatda so'zsiz moliyalashtirish zarurligidan kelib chiqqan holda aniqlashtirish huquqi berilsin.

Belgilansinki:

budjet tashkilotlari va budjet mablag'laridan foydalanuvchilarning xarajatlar smetasi tuzilayotganda birinchi navbatda ish haqi (yagona ijtimoiy to'lov bilan birga), nafaqalar va unga tenglashtirilgan to'lovlarga sarflanadigan xarajatlar tegishli budjetlarning tasdiqlangan xarajatlari parametri doirasida nazarda tutiladi;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari O'zbekiston Respublikasining respublika budjeti naqd aylanma kassa mablag'lari hisobiga budjet ssudalari olish uchun so'rovnoma bilan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga yozma ravishda murojaat qilishganida, ularni qoplash muddati va manbalari to'g'risida to'liq axborotni taqdim etadilar.

18. 2015-yil uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining xazira jamg'armasi hamda Qoraqalpog'iston Respublikasining respublika budjeti, viloyatlarning viloyat budjetlari va Toshkent shahrining shahar budjeti xazira jamg'armalari miqdorlari 33-ilovaga* muvofiq tasdiqlansin.

* 30 — 33-ilovalar berilmaydi.

19. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi hamda Moliya vazirligining tuman (shahar) markaziy shifoxonalarida xizmat ko'rsatilayotgan aholi sonini hisobga olgan holda, kasalliklar yo'nalishi bo'yicha profil o'rinlar diapazonini belgilashni nazarda tutuvchi o'rinlar fondini aniqlashning normativ usuliga bosqichma-bosqich o'tish to'g'risidagi taklifi qabul qilinsin.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi 2015-yilning 1-apreldan boshlab tuman (shahar) markaziy shifoxonalarida o'rinlar fondini aniqlashning normativ usuliga bosqichma-bosqich o'tish to'g'risidagi normativ-huquqiy hujjat [loyihasini](#) bir oy muddatda ishlab chiqib, Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda Vazirlar Mahkamasiga taqdim etsin.

20. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi Moliya vazirligi bilan birgalikda respublikada zamonaviy axborot- kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishini hisobga olib, umumta'lim maktablari, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarning namunaviy shtatlarini yanada takomillashtirish ishlarini davom ettirsin, unda umumta'lim maktablari o'qituvchilariga informatika xonasi mudirligi uchun mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori 17,6 foizi miqdorida ustama haq belgilash yo'li bilan moddiy rag'batlantirishni kuchaytirishni hamda dasturchi muhandis lavozimini maqbullashtirishni nazarda tutsin.

21. Ota-onalardan olinadigan to'lov miqdorlari quyidagicha belgilansin:

O'zbekiston Respublikasining 2015-yilgi Davlat budjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladigan maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar ta'minoti uchun to'lov miqdorlari [34-ilovaga](#) muvofiq;

bolalarni bolalar musiqa va san'at maktablarida o'qitish uchun to'lov miqdorlari [35-ilovaga](#) muvofiq.

22. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining 2010-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida" 2009-yil 22-dekabrda PQ-1245-sonli qarori [24-bandining](#) amal qilishi 2016-yilning 1-yanvarigacha uzaytirilsin.

23. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Xususiyashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi, Iqtisodiyot vazirligi va boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda tadbirkorlik subyektlaridan O'zbekiston tovar-xom ashyo birjasining maxsus axborot portali orqali elektron savdolar yordamida eng zarur tovar (ish, xizmat)lar davlat haridini amalga oshirish tartibini soddalashtirish bo'yicha 2015-yilning 1-martigacha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritilsin.

24. O'zbekiston Respublikasining davlat soliq xizmati organlarida hisobga qo'yilgan doimiy muassasalarni tashkil etib, faoliyat yuritayotgan O'zbekiston Respublikasi norezidentlariga tuzilgan shartnomalarni amalga oshirish doirasida tovarlar olib kirish huquqi berilsin.

25. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2013-yilgi O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetining asosiy parametrlarini va O'zbekiston Respublikasi davlat maqsadli jamg'armalarini quyidagi hajmlarda aniqlashtirish to'g'risidagi taklifi qabul qilinsin:

budjet taqchilligi yalpi ichki mahsulot hajmiga nisbatan 0,2 foiz bo'lgani holda, O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti daromadlari 31 405,1 mlrd so'm, xarajatlari 31 675,8 mlrd so'm miqdorida;

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining daromadlari 11 748,4 mlrd so'm va xarajatlari 10 700,0 mlrd so'm miqdorida;

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasining daromadlari 2 373,3 mlrd so'm va xarajatlari 2 225,6 mlrd so'm miqdorida.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Moliya vazirligining G'aznachilik bo'linmalari O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan birgalikda 2015-yilning yanvar oyida, o'tkazilgan

operatsiyalarni 2014-yilgi O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetining ijrosi to'g'risidagi hisobotda aks ettirgan holda, 2014-yilgi O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti ijrosi bo'yicha, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda, yakuniy operatsiyalar o'tkazsinlar.

26. 2015-yilning 1-yanvaridan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga **36-ilovaga** muvofiq o'zgartish va qo'shimchalar kiritilsin.

27. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Adliya vazirligi hamda boshqa manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda bir oy muddatda qonun hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartish va qo'shimchalar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

Vazirliklar va idoralar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari ilgari qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarni bir hafta muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsinlar.

28. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining birinchi o'rinbosari R.S. Azimov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. KARIMOV

Toshkent sh.,
2014-yil 4-dekabr,
PQ-2270-son

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 4-dekabrda PQ-2270-sonli **qaroriga**
8-ILOVA

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i

STAVKALARI

T/r	To'lovchilar	Soliq stavkalari, soliq solinadigan bazaga nisbatan foizda
1.	Yuridik shaxslar (2-3-bandlarda nazarda tutilganlaridan tashqari)	7,5
2.	Tijorat banklari	15
3.	Auksionlar o'tkazishdan, gastrol-konsert faoliyati bilan shug'ullanishga litsenziyasi bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarni (shu jumladan, norezidentlarni) jalb etish yo'li bilan ommaviy tomosha tadbirlarini tashkil etishdan daromad oluvchi yuridik shaxslar	35
4.	O'zi ishlab chiqargan tovarlar, ishlar, xizmatlar eksportining (ishlarni bajarish, xizmatlarni ko'rsatish joyidan qat'iy nazar) erkin almashtiriladigan valyutadagi ulushi quyidagi miqdorlarni tashkil etadigan eksportchi korxonalar uchun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 10-oktabrdagi PF-1871-son Farmoni bilan tasdiqlangan ro'yxatda keltirilgan xom ashyo mahsulotlari bundan mustasno:	
	sotishning umumiy hajmida 15 foizdan 30 foizgacha	belgilangan stavka 30 foizga pasaytiriladi
	sotishning umumiy hajmida 30 foiz va undan yuqori	belgilangan stavka 50 foizga pasaytiriladi
5.	1-bandda ko'rsatilgan xizmatlar ko'rsatish sohasi korxonalari uchun, plastik kartalar qo'llanib haq to'langan holda ko'rsatilgan xizmatlar hajmi bo'yicha	belgilangan stavka 5 foizga pasaytiriladi

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i

STAVKALARI

Soliq solinadigan daromad	Soliq stavkasi
eng kam ish haqining bir baravarigacha miqdorda	daromad summasining 0 foizi
eng kam ish haqining bir baravaridan (+1 so'm) besh baravarigacha miqdorda	eng kam ish haqi miqdorining bir baravaridan oshadigan summaning 8,5 foizi
eng kam ish haqining besh baravaridan (+1 so'm) o'n baravarigacha miqdorda	besh baravar miqdordan soliq + eng kam ish haqi miqdorining besh baravaridan oshadigan summaning 17 foizi
eng kam ish haqining o'n baravaridan (+1 so'm) va undan yuqori miqdorda	o'n baravar miqdordan soliq + eng kam ish haqi miqdorining o'n baravaridan oshadigan summaning 23 foizi

Izohlar:

1. *Soliq solinadigan daromadlar guruhlari bo'yicha soliq solish shkalasi yil boshiga — 2015-yil 1-yanvarga belgilangan eng kam ish haqi miqdoridan (118 400 so'm) kelib chiqib belgilanadi va eng kam ish haqi miqdorining yil davomidagi o'zgarishiga qarab qayta ko'rib chiqilmaydi.*

2. *Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summasini hisoblab chiqarish maqsadida eng kam ish haqining miqdori yil boshidan ortib boruvchi yakun bilan hisobga olinadi (yil boshidan tegishli davrning har bir oyi uchun eng kam ish haqlarining summasi).*

3. *Belgilangan stavkalardan kelib chiqib hisoblangan, budgetga to'lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summasi fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga o'tkaziladigan, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i solinadigan daromadlaridan "0" stavka bo'yicha soliq solinadigan daromad (eng kam ish haqining bir baravari) chegirilgan holda 1 foiz miqdorida hisoblab chiqariladigan har oylik majburiy badallar summasiga kamaytiriladi.*

4. *Qonun hujjatlariga muvofiq eng kam stavka bo'yicha soliq solinadigan jismoniy shaxslarning alohida daromadlariga soliq solish maqsadi uchun eng kam stavka 8,5 foiz miqdorida qabul qilinadi.*

Mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun (savdo va umumiy ovqatlanish korxonalaridan tashqari) yagona soliq to'lovi

STAVKALARI

T/r	To'lovchilar	Soliq stavkalari, soliq solinadigan bazaga nisbatan foizda
1.	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlari korxonalari, 2 — 11-bandlarda ko'rsatib o'tilganlaridan tashqari	6*
2.	Canoat sohasidagi korxonalar	5
3.	Qurilish tashkilotlari	5
4.	Ommaviy axborot vositalari tahririyatlari, nashriyotlar, matbaa tashkilotlari, teleradioeshittirish kompaniyalari	5
5.	Kompyuter dasturiy mahsulotlarini ishlab chiqish va joriy etish tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiyasi umumiy hajmining kamida 80 foizini tashkil etadigan korxonalar	5
6.	Bojxona rasmiylashtiruv bo'yicha xizmatlarni ko'rsatadigan yuridik shaxslar (bojxona brokerlari)	6
7.	Lombardlar	30

8.	Gastrol-konsert faoliyati bilan shug'ullanish uchun litsenziyaga ega bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarni (shu jumladan, norezidentlarni) jalb etish yo'li bilan ommaviy tomosha tadbirlarini tashkil etishdan daromad oladigan korxonalar	30
9.	Tayyorlov tashkilotlari, brokerlik idoralari (10-bandda ko'rsatilganlaridan tashqari), shuningdek vositachilik, topshiriq va boshqa shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatadigan korxonalar	33**
10.	Qimmatli qog'ozlar bozorida brokerlik faoliyatini amalga oshiradigan korxonalar	13**
11.	Oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlarini realizatsiya qilish uchun turg'un savdo shoxobchalarini ijaraga berishga ixtisoslashgan korxonalar (ijaraga berishdan olingan daromadlar 60 foizdan ko'pni tashkil etadi)	30
12.	O'zi ishlab chiqargan tovarlar, ishlar, xizmatlar eksportining (ishlarni bajarish, xizmatlarni ko'rsatish joyidan qat'iy nazar) erkin almashtiriladigan valyutadagi ulushi quyidagi miqdorlarni tashkil etadigan korxonalar uchun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 10-oktabrdagi PF-1871-son Farmoni bilan tasdiqlangan ro'yxatda keltirilgan xom ashyo tovarlari bundan mustasno:	
	sotishning umumiy hajmida 15 foizdan 30 foizgacha	belgilangan stavka 30 foizga pasaytiriladi
	sotishning umumiy hajmida 30 foiz va undan ko'p	belgilangan stavka 50 foizga pasaytiriladi
13.	Xizmatlar ko'rsatish sohasi korxonalari uchun plastik kartalar qo'llanib haq to'langan holda ko'rsatilgan xizmatlar hajmi bo'yicha	belgilangan stavka 5 foizga pasaytiriladi

* Mol-mulkini moliyaviy ijara (lizing)ga beradigan korxonalar uchun – moliyaviy ijara (lizing) bo'yicha foizli daromad summasi.

** Haq summasi (yalpi daromad).

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 4-dekabrdagi PQ-2270-sonli qaroriga
10-2-ILOVA

Savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari, shu jumladan, mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovining

STAVKALARI

T/r	To'lovchilar	Soliq stavkalari, soliq solinadigan bazaga nisbatan foizda
1.	Umumiy ovqatlanish korxonalari	10
	ulardan:	
	umumiy ta'lim maktablari, maktab-internatlar, o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy o'quv yurtlariga xizmat ko'rsatuvchi ixtisoslashgan umumiy ovqatlanish korxonalari	8
2.	Chakana savdo korxonalari (5-bandda ko'rsatilganlaridan tashqari), quyidagi joylarda joylashgan:	
	aholisi soni 100 ming va undan ko'p kishidan iborat shaharlarda	4
	boshqa aholi punktlarida	2
	borish qiyin bo'lgan va tog'li yerlarda	1

3.	Ulgurji, shuningdek ulgurji-chakana savdo bilan shug'ullanuvchi korxonalar (5-bandda ko'rsatilganlaridan tashqari)	5
4.	Chakana va ulgurji tovar oboroti bo'yicha "Sharobsavdo" ixtisoslashgan hududiy bazalari	5
5.	Ulgurji va chakana dorixona tashkilotlari, quyidagi joylarda joylashgan:	
	aholisi soni 100 ming va undan ko'p kishidan iborat shaharlarda	3
	boshqa aholi punktlarida	2
	borish qiyin bo'lgan va tog'li yerlarda	1
6.	1 — 5-bandlarda ko'rsatilgan korxonalar uchun plastik kartalar qo'llanib haq to'langan holda ko'rsatilgan xizmatlar hajmi bo'yicha	belgilangan stavka 5 foizga pasaytiriladi

Izoh:

Agar chakana savdo korxonalari mustaqil yuridik shaxs hisoblanmaydigan va turli aholi punktlarida joylashgan, ular bo'yicha yagona soliq to'lovining turli stavkalari belgilangan bir nechta savdo shoxobchalariga ega bo'lsa, ular har bir savdo shoxobchasi bo'yicha tovar oborotining alohida-alohida hisobini yuritishlari hamda mazkur aholi punktlari uchun belgilangan stavkalar bo'yicha yagona soliq to'lovini to'lashlari lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 4-dekabrda PQ-2270-sonli qaroriga
10-3-ILOVA

Ayrim toifadagi korxonalar uchun yagona soliq to'lovi

STAVKASI

To'lovchilar	Soliq stavkasi, soliq solinadigan bazaga nisbatan foizda
Lotereyalar tashkil etish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi korxonalar (mazkur faoliyat turi doirasida)	33

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 4-dekabrda PQ-2270-sonli qaroriga
11-ILOVA

Yuridik shaxslardan va yakka tartibdagi tadbirkorlardan olinadigan qat'iy belgilangan soliq

STAVKALARI

T/r	Faoliyat turi	To'lovchilar	Mazkur faoliyat turini xarakterlovchi fizik ko'rsatkichlar	Fizik ko'rsatkich birligiga har oyda qat'iy belgilangan soliq stavkasi (birlik uchun eng kam ish haqiga karrali miqdorlarda)		
				Toshkent sh.	Nukus sh. va viloyat bo'ysunuvidagi shaharlar	boshqa aholipunktlari
1.	Avtotransport vositalarini vaqtincha saqlash	yuridik shaxslar	Egallagan maydon (1 kv. metr)	0,1	0,06	0,04
2.	Bolalar o'yin avtomatlari	yuridik va jismoniy shaxslar	Jihozlangan o'rinlar soni (birlikda)	3,0	2,0	1,0

Izohlar:

1. Qat'iy belgilangan soliq stavkasi yil boshiga — 2015-yil 1-yanvarga belgilangan eng kam ish haqi (118 400 so'm) miqdoridan kelib chiqib belgilanadi va eng kam ish haqi miqdorining yil davomidagi o'zgarishiga qarab qayta ko'rib chiqilmaydi.

2. Taqdim etilgan qat'iy belgilangan soliq hisob-kitobida hisobga olinmagan fizik ko'rsatkichlar aniqlangan taqdirda bunday holatlarga soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash sifatida qaraladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 4-dekabrdagi PQ-2270-sonli qaroriga
12-ILOVA

Yakka tartibdagi tadbirkorlardan olinadigan qat'iy belgilangan soliq

STAVKALARI

T/r	Faoliyat turi	Qat'iy belgilangan soliqning bir oydagi stavkasi (eng kam ishhaqiga karrali miqdorlarda)		
		Toshkent shahri	Nukus sh. va viloyat bo'ysunuvidagi shaharlar	boshqa aholi punktlari
1.	Chakana savdo			
	oziq-ovqat tovarlari bila	9,0	6,0	3,0
	dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan*	5,0	4,0	2,0
	nooziq-ovqat tovarlari bila	10,0	6,5	3,0
	gazetalar, jurnallar va kitob mahsulotlari bila	5,0	3,0	0,5
	oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlari bilan (turg'un shoxobchalardagi aralash savdo	10,0	6,5	3,0
2.	Maishiy xizmatlar	3,5	1,5	0,5
3.	O'z mahsulotini ishlab chiqarish va sotish, shu jumladan, milliy shirinliklar va non-bulka mahsulotlarini tayyorlash va sotish, shuningdek, uy sharoitlarida yoki joylardagi davlat hokimiyati organlarining qarori bilan maxsus ajratilgan joylarda o'tirish joylari tashkil qilmasdan donalab sotiladigan ovqatlarning ayrim turlarini tayyorlash va sotish	2,0	1,5	1,0
4.	Boshqa faoliyat turlari	2,0	1,5	1,0
5.	Avtomobil transportida yuk tashishga oid xizmatlar:			
	3 tonnagacha yuk ko'tarish quvvatiga ega yuk avtomobillari uchun	2,0		
	8 tonnagacha yuk ko'tarish quvvatiga ega yuk avtomobillari uchun	3,0		
	8 tonnadan ortiq yuk ko'tarish quvvatiga ega yuk avtomobillari uchun	4,0		

* Uy xo'jaligi, shu jumladan dehqon xo'jaligida parvarishlangan tirik hayvonlarni (chorva mollari, parrandalar, mo'ynali va boshqa hayvonlar, baliqlar va boshqalar) hamda ularni so'yib, xom yoki qayta ishlangan ko'rinishdagi mahsulotlarni, sanoatda qayta ishlashdan tashqari, chorvachilik, asalarichilik va dehqonchilik mahsulotlarini tabiiy va qayta ishlangan ko'rinishda (manzarali bog'dorchilik (gulchilik) mahsulotlaridan tashqari) sotish bundan mustasno.

Soliq solishdan ozod etish soliqli to'lovchi tomonidan davlat hokimiyatining joylardagi tegishli organi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi, bog'dorchilik, uzumchilik yoki polizchilik shirkati boshqaruvi tomonidan berilgan, sotilgan mahsulot soliqli to'lovchi tomonidan unga yoxud uning oila a'zolariga ajratilgan yer uchastkasida yetishtirilganligini tasdiqlovchi belgilangan shakldagi hujjatni taqdim etish sharti bilan amalga oshiriladi.

Izohlar:

1. Qat'iy belgilangan soliqli stavkalari yil boshiga — 2015-yil 1-yanvariga belgilangan eng kam ish haqid (118 400 so'm) kelib chiqib aniqlanadi va eng kam ish haqi miqdori yil davomida o'zgarganda qayta ko'rib chiqilmaydi.

2. Jismoniy shaxs:

a) bir nechta faoliyat turi bilan shug'ullansa, har bir faoliyat turi uchun alohida-alohida soliqli to'laydi;

b) tadbirkorlik faoliyatini ijaraga olingan uskunalar va binoda amalga oshirsa, yashash joyidagi davlat soliqli xizmati organiga ijaraga beruvchi to'g'risida ma'lumotnoma (axborot) taqdim etishi kerak;

v) davlat ro'yxatidan o'tkazilmagan joyda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirsa, soliqli ro'yxatdan o'tkazilgan joyda va faoliyatni haqiqatda amalga oshirayotgan joyda belgilangan stavkalar orasida eng yuqori stavka bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan joy bo'yicha to'laydi.

3. Jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davlat ro'yxatidan o'tmasdan faoliyat turlari amalga oshirilganligi holatlari aniqlangan taqdirda, davlat soliqli xizmati organlari belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda yillik hajmda tegishli faoliyat turi bo'yicha bir yola qat'iy belgilangan soliqli undiradilar, bundan jismoniy shaxsning davlat ro'yxatidan o'tmasdan faoliyat ko'rsatayotganligi dalili aniqlangan sanadan boshlab o'ttiz kun mobaynida uning yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tganligi aniqlangan holatlar mustasno. Bunday jismoniy shaxsga hisoblab yozilgan yillik qat'iy belgilangan soliqli summasini O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliqli qo'mitasi tomonidan belgilangan tartibda ushbu davr uchun qat'iy belgilangan soliqli bo'yicha kelgusidagi soliqli majburiyatlari hisobiga o'n ikki oy mobaynida to'lash huquqi taqdim etiladi.

4. Jismoniy shaxslarning mol-mulkni ijaraga berishdan olgan daromadlariga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qaroriga 8-ilovada ko'rsatilgan soliqli solish shkalasining eng kam stavkasi bo'yicha jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soliqli solinadi.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 4-dekabrda PQ-2270-sonli qaroriga
13-1-ILOVA**

O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan, aksiz soliqli solinadigan tovarlarga nisbatan aksiz soliqli

STAVKALARI

Tovarlar nomi	Soliqli stavkasi	
	aksiz soliqli va QQSni hisobga olmagan holda sotilgan tovarlar qiymatiga nisbatan foizlarda	bir o'lchov birligiga so'mda
1. Etil spirti (1 dal uchun)		4 183
2. Vino (1 dal tayyor mahsulot uchun)1:		
tabiiy ravishda achitilgan natural vinolar (etil spirti qo'shilmagan holda)		5 767
boshqa vinolar		7 246
3. Konyak, aroq va boshqa alkogolli mahsulotlar (1 dal tayyor mahsulot uchun)1		37 605*
4. Pivo (1 dal tayyor mahsulot uchun)1		4 106
5. O'simlik (paxta) yog'i (1 tonna uchun)1:		
ozuq-ovqat yog'i (salomac ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan yog' va "O'zbekiston" yog'idan tashqari)		875 665
texnik moy (kislota miqdori 0,3 mg KON/g dan yuqori, ozuq-ovqat mahsulotlari tarkibiga qo'shishga yaroqsiz bo'lgan)		481 689
6. Filtrli, filtersiz sigaretalar, papirosalar (1 ming dona uchun)1		19 196

7. Zargarlik buyumlari	25	
8. “Jeneral Motors O‘zbekiston” YAJ ishlab chiqargan avtomobillar ²	29	
9. Kumushdan ishlangan oshxona anjomlari	11	
10. Qimmatbaho metallar ²		
11. Neft mahsulotlari ¹ :		
Ai-80 benzini		321 430 so‘m/tonna
Ai-91, Ai-92, Ai-93 benzini		353 430 so‘m/tonna
Ai-95 benzini		408 890 so‘m/tonna
dizel yoqilg‘isi		273 400 so‘m/tonna
EKO dizel yoqilg‘isi		284 250 so‘m/tonna
aviakerosin		50 580 so‘m/tonna
dizel yoki karbyurator (injektor) dvigatellari uchun motor moyi		207 000 so‘m/tonna
12. Tabiiy gaz, shu jumladan, eksport ²	25	
13. Ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan sotiladigan suyultirilgan gaz (“O‘ztransgaz” AK mintaqalararo unitar korxonalari tomonidan aholiga sotiladigan gaz hajmi bundan mustasno), shu jumladan, eksport ²	26	
14. Paxta tolasi ³		

** Hajmiy ulushda etil spirti 40 foizdan ko‘p bo‘lgan konyak, aroq va boshqa alkogolli mahsulotlarga aksiz solig‘i stavkasi 1 dal tayyor mahsulot uchun 61 963 so‘m miqdorida belgilanadi.*

Izohlar:

1. Qat‘iy miqdorlarda belgilangan aksiz solig‘i stavkalari O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan narxlarining dinamikasi hamda mahsulotning sotilish hajmidan kelib chiqqan holda yil mobaynida qayta ko‘rib chiqilishi mumkin.

2. “Jeneral Motors O‘zbekiston” YAJ avtomobillari, tabiiy va suyultirilgan gaz, qimmatbaho metallar, shuningdek chakana savdo tarmog‘ida sotiladigan tilladan ishlangan zargarlik buyumlariga aksiz solig‘ini to‘lovchilar va uni to‘lash tartibi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi bilan kelishilgan holda belgilanadi. Bunda aholiga realizatsiya qilinadigan tabiiy gazdan olinadigan tabiiy gaz narxida nazarda tutilgan aksiz solig‘i va qo‘shilgan qiymat solig‘ining hisoblangan summasi investitsiyaviy loyihalarni moliyalashtirishga maqsadli yo‘naltirilgan holda “O‘ztransgaz” AK tasarrufida qoladi.

3. Paxta tolasining ichki narxleri (realizatsiya bo‘yicha xarajatlarni hisobga olgan holda) va uni realizatsiya qilishning haqiqiy narxi o‘rtasidagi ijobiy farq paxta tozalash korxonalarining maxsus hisob raqamida jamlanadi va 50 foizi paxtachilik fermer xo‘jaliklariga ularning budjet va budjetdan tashqari jamg‘armalar oldidagi qarzini so‘ndirishga yoki ushbu xo‘jaliklarning xizmat ko‘rsatuvchi korxonalardan qarzini so‘ndirishga (keyinchalik tegishli mablag‘larni ushbu korxonalarning budjet va budjetdan tashqari jamg‘armalar oldidagi kreditorlik qarzini so‘ndirishga yo‘naltirgan holda), 25 foizi miqdorida — “O‘zpaxtasanoa” uyushmasi korxonalarining O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sotib olish hisob-kitobi jamg‘armasi kreditlari bo‘yicha qarzini so‘ndirishga, qolgan qismi esa — O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo‘jaligi mahsulotlari sotib olish hisob-kitobi jamg‘armasining aylanma mablag‘larini to‘ldirishga yo‘naltiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 4-dekabrda PQ-2270-sonli qaroriga
13-2-ILOVA

O‘zbekiston Respublikasi hududiga chetdan keltiriladigan aksiz solig‘iga tortiladigan tovarlarga aksiz solig‘i

STAVKALARI

Tovar guruhining raqami	Tovarlar nomi	TIF TN bo‘yicha tovar kodi	Tovarning bojxona qiymatidan foizlarda yoki
--------------------------------	----------------------	-----------------------------------	--

			o'lchov birligi uchun AQSH dollarida
02	Yangi so'yilgan go'sht va iste'molbop go'shtli qo'shimcha mahsulotlar, sovutilgan yoki muzlatilganlari	0201 — 0206, 0208	30
		0207	70
	Yog'i kam go'shtdan ajratib olingan cho'chqa yog'i va qizdirilmagan yoki boshqa olinish usullari qo'llanmagan xonaki parranda yog'i, yangilari, sovutilganlari, muzlatilganlari, tuzlanganlari, namakobga solinganlari, quritilganlari yoki dudlanganlari	0209	30
	Quyultirilmagan va shakar yoki boshqa shirin qiluvchi moddalar qo'shilmagan sut va slivkalar	0401	20
04	Quyultirilgan yoki shakar yoxud boshqa shirin qiluvchi moddalar qo'shilgan sut va slivkalar	0402 91, 0402 99	30
	Ardob (yog'i olingan sut), ivigan sut va slivkalar, yogurt, kefir	0403	70
	Pishloqlar va tvorog	0406	70
	Parrandalar (nasldorlaridan tashqari) tuxumi	0407	70
	Tabiiy asal	0409 00 000 0	10
07	Yangi kavlab olingan yoki sovutilgan va boshqa xildagi kartoshka	0701 90	20
	Piyoz, shalot piyozi, ko'k piyoz va boshqa piyozboshlilar ildizlari, yangi uzilganlari yoki sovutilganlari	0703	30
	(O'zR Prezidentining 13.08.2015-y. PQ-2388-son qarori tahriridagi satr) (Oldingi tahririga qarang)		
	No'xat, boshqalar	0713 10 900 0	10
08	Achchiq bo'lmagan yangi yoki quritilgan, po'chog'idan tozalangan bodom; yangi va quritilgan, po'chog'idan tozalangan o'rmon yong'og'i, yangi yoki quritilgan pista;	0802 12 900 0, 0802 22 000 0, 0802 51 000 0, 0802 52 000 0, 0802 90 850 0	50

	yangi yoki quritilgan boshqa yongʻoqlar (OʻzR Prezidentining 13.08.2015-y. PQ-2388-son qaroriga muvofiq kiritilgan)		
	OʻzR Prezidentining 13.08.2015-y. PQ-2388-son qaroriga muvofiq birinchi — oʻninchi satrlar ikkinchi— oʻn birinchi satrlar deb hisoblansin		
	Yangi uzilgan banan, plantaynlardan tashqari	0803 90 100 0	25, biroq 1 kg uchun 0,15 AQSH dollaridan kam emas
	Yangi uzilgan ananas	0804 30 000 1	25, biroq 1 kg uchun 0,15 AQSH dollaridan kam emas
	Avokado	0804 40 000 0	25, biroq 1 kg uchun 0,15 AQSH dollaridan kam emas
	Yangi uzilgan guayava, mango va mangostan (garsiniya)	0804 50 000 1	25, biroq 1 kg uchun 0,15 AQSH dollaridan kam emas
	Apelsin	0805 10	25, biroq 1 kg uchun 0,15 AQSH dollaridan kam emas
	Mandarin (shu jumladan, tanjerin va satsumalar); klementin, vilking va sitruslilarning shunga oʻxshash chatishmalari, yangi uzilgan yoki quritilganlari	0805 20	25, biroq 1 kg uchun 0,15 AQSH dollaridan kam emas
	Greyppfrut, shu jumladan, pomello, yangi uzilgan yoki quritilganlari	0805 40 000 0	25, biroq 1 kg uchun 0,15 AQSH dollaridan kam emas
	Limon (citrus limon, citrus limonum), yangi uzilgan yoki quritilganlari	0805 50 100 0	25, biroq 1 kg uchun 0,15 AQSH dollaridan kam emas
	Yangi uzilgan olma, nok va behi	0808	100
	Kivi	0810 50 000 0	25, biroq 1 kg uchun 0,15 AQSH

			dollaridan kam emas
09	Qovurilgan yoki qovurilmagan, kofeinli yoki kofeinsiz kofe; kofe po'chog'i va kofe urug'i qobiqlari; tarkibida turli nisbatda kofe bo'lgan kofe o'rnini bosuvchilar	0901	20
11	Bug'doy uni	1101 00 110 0, 1101 00 150 0	11
15	Soya moyi va uning fraksiyalari	1507	10
	Palma yog'i va uning fraksiyalari, tozalanmagan yoki tozalangan, lekin kimyoviy tarkibi o'zgartirilmagan holda (O'zR Prezidentining 13.08.2015-y. PQ-2388-son qarori tahriridagi satr) (Oldingi tahririga qarang)	1511	20, biroq 1 kg uchun 0,32 AQSH dollaridan kam emas
	Kungaboqar, maxsar yoki paxta moyi va ularning fraksiyalari	1512	20, biroq 1 litr uchun 0,32 AQSH dollaridan kam emas
	Margarin, taom iste'moli uchun yaroqli yoxud mol yoki o'simlik yog'lari yoki moylaridan tayyor mahsulotlar	1517	20
16	Go'sht va go'shtli qo'shimcha mahsulotlardan tayyorlangan kolbasa va shunga o'xshash mahsulotlar	1601 00	50
	Go'sht va go'shtli qo'shimcha mahsulotlardan tayyor yoki konservalangan mahsulotlar, bolalar ovqatidan tashqari	1602 (1602 10 001 0 dan tashqari)	70
	Tayyor yoki konservalangan baliq; tayyor yoki konservalangan qisqichbaqasimonlar, mollyuskalar va boshqa suvda yashaydigan umurtqasizlar	1604 (1604 31 000 0, 1604 32 00 dan tashqari), 1605	30
	Osyotr va osyotrsimonlar uvildirig'i, uvildirig o'rnini bosuvchilar	1604 31 000 0, 1604 32 00	50
17	Shakarqamish yoki qand lavlagidan tayyorlangan shakar va kimyoviy toza saxaroza, qattiq holatdagi	1701 91 00, 1701 99	10
	Tarkibida kakao bo'lmagan, shakardan tayyorlangan	1704 (1704 10 dan tashqari)	50

	qandolat mahsulotlari (shu jumladan, oq shokolad)		
	Shakar bilan qoplangan yoki qoplanmagan rezinka saqich	1704 10	100
18	Tarkibida kakao bo'lgan shokolad va boshqa tayyor oziq-ovqat mahsulotlari	1806 20 — 1806 90	30
19	Boshqali o'simliklar donlari, un, kraxmal yoki sutdan tayyorlangan tayyor oziq-ovqat mahsulotlar	1901 (1901 10 000 0, 1901 90 990 0 dan tashqari), 1903	20
		1901 90 990 0*	30
	Makaron mahsulotlari, issiqlik bilan ishlov berilgan yoki ishlov berilmaganlari, ichiga masalliq (go'shtdan yoki boshqa mahsulotlardan) solinganlari yoki solinmaganlari yoki boshqa usulda tayyorlangan spagetti, makaronlar, ugra, makaronning mayda xili, kletsiki, ravioli, kanneloni; kuskus, ovqatga qo'shishga tayyorlari yoki tayyor bo'lmaganlari	1902 (1902 30 100 0 dan tashqari)	30
	Qurtilgan makaron mahsulotlari	1902 30 100 0	50
	Boshqali o'simliklar donlari yoki don mahsulotlarini kepchitish (shishirish) yoki qovurish yo'li bilan olingan tayyor oziq-ovqat mahsulotlari	1904	30
	Tarkibida kakao bo'lmagan yoki bo'lgan, undan tayyorlangan qandolat mahsulotlari	1905	50
20	Sabzavot, meva, yong'oq yoki boshqa o'simlik qismlarining qayta ishlangan mahsulotlari	2001 (2001 90 910 0 dan tashqari), 2004, 2006 00 (2006 00 350 0, 2006 00 910 0 dan tashqari), 2007 (2007 10 101 0, 2007 10 911 0, 2007 10 991 0, 2007 99 930 0 dan tashqari)	30
	Sirka yoki sirka kislotasi qo'shilmasdan tayyorlangan yoki konservalangan tomatlar	2002	50
	Sirka yoki sirka kislotasi qo'shilmasdan tayyorlangan yoki konservalangan boshqa	2005	50

	sabzavotlar, 2006-tovar pozitsiyasidagi mahsulotlardan tashqari muzlatilmaganlari		
	Mevalar, yong‘oqlar va o‘simliklarning iste‘mol uchun yaroqli bo‘lgan boshqa qismlari, boshqa usullarda tayyorlangan yoki konservalangan, tarkibiga shakar yoki boshqa shirin qiluvchi moddalar yoki spirt qo‘shilganlari yoki qo‘shilmaganlari, boshqa joylarda nomlanmaganlari yoki kiritilmaganlari	2008	30
	Meva va sabzavot sharbatlari (ananas va sitrus mevalar sharbatidan tashqari)	2009 (2009 11 — 2009 49, 2009 90 410, 2009 90 490, 2009 90 710 0, 2009 90 730 0, 2009 90 790 0 dan tashqari)	70%, biroq 1 litr uchun 1,0 AQSH dollaridan kam emas
21	Turli oziq-ovqat mahsulotlari, bolalar ovqatidan tashqari (O‘zR Prezidentining 13.08.2015-y. PQ-2388-son qarori tahriridagi satr) (Oldingi tahririga qarang)	21 (2102, 2103, 2104 20 001 0, 2105 00, 2106 90 980 1 dan tashqari)	50
	Xamirturush (faol yoki faol emas); boshqa jonsiz bir hujayrali mikroorganizmlar (3002-tovar pozitsiyadagi vaksinalardan tashqari); novvoylikning tayyor kukunlari (O‘zR Prezidentining 13.08.2015-y. PQ-2388-son qaroriga muvofiq kiritilgan satr)	2102	70
	O‘zR Prezidentining 13.08.2015-y. PQ-2388-son qaroriga muvofiq ikkinchi-to‘rtinchi satrlarni uchinchi-beshinchi satrlar deb hisoblansin		
	Qayla tayyorlash uchun mahsulotlar va tayyor qayla; ta‘m beruvchi qo‘shimchalar va aralash ziravorlar; xantal kukuni va tayyor xantal	2103	70
	Muzqaymoq va boshqa turdagi iste‘molga yaroqli muz	2105 00	200
	Shakar qo‘shilmagan saqich	2106 90 980 1	100
22	Suv, shu jumladan, tabiiy yoki sun‘iy ma‘danli, gazlangan, qo‘shimcha qo‘shilgan yoki shakar yoki boshqa shirin qiluvchi yoxud xushbo‘y hid va ta‘m beradigan moddalar qo‘shilmagan suvlar; muz va qor hamda boshqa alkogolsiz ichimliklar, 2009-tovar	2201, 2202	100%, biroq 1 litr uchun 1,0 AQSH dollaridan kam emas

	pozitsiyasidagi meva yoki sabzavot sharbatlaridan tashqari		
	Solod (shirinmiya) pivosi	2203 00	100%, biroq 1 litr uchun 1,43 AQSH dollaridan kam emas
	Vino	2204 10, 2204 21, 2204 29, 2205	1 litr uchun 6,0 AQSH doll.
